




S. MATKARIMOVA

**“O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI
TARIXI” FANIDAN KURS ISHLARI**

§

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**“O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI”
FANIDAN KURS ISHLARI**
(uslubiy ko'rsatma)

*Mazkur uslubiy ko'rsatma UrDU ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga
asosan nashrga tavsiya etilgan.*

Urganch – 2015

UDK: 821.512.133(09)

KBK: 74.268.3

M 31

S. Matkarimova. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanidan kurs ishlari. Uslubiy ko'rsatma. Mas'ul muharrir H. Abdullayev. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch, Urganch davlat universiteti nashirlik bo'limi, 2015. 72 bet.

KBK 74.268.3

83.3(50')

Mazkur uslubiy ko'rsatma "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fani o'qitiladigan oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishidagi talabalari uchun mo'ljallangan.

Muharrir

H. Abdullayev, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

I. Ismailov, filologiya fanlari nomzodi,

I. Hajiyeva, filologiya fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-4028-4-3 © UrDU nashirlik bo'limi, 2015.

© S. Matkarimova. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanidan kurs ishlari (uslubiy ko'rsatma).

NIZOM

Yangi axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish, o'qitish samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri. Shu nuqtayi nazardan, axborot texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri nafaqat uning mazmuni, balki ta'limning tashkiliy shakllariga ham zamon talablariga asoslangan holda yondashishni talab qiladi.

Ushbu nizom talabalar kurs ishi (loyihasi)ni bajarishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni tartibga solish maqsadida quyidagi asosiy qoidalarini belgilaydi:

1. Kurs ishi – talabalarining muayyan fan bo'yicha nazariy bilimlari darajasi, ilmiy tadqiqotchilik malaka va ko'nikmalarining shakllanganligidan dalolat beruvchi o'quv topshirig'i bo'lib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining namunaviy o'quv rejalari hamda ishchi o'quv rejalarda ko'rsatilgan fanlar bo'yicha bajariladi.

2. Kurs ishi mavzulari tegishli kafedralarda yetakchi professor-o'qituvchilar ishtirokida muhokama qilinishi va universitet, fakultet hamda kafedra ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim.

3. Kurs ishi mavzularining ro'yxati kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan holda, elektron shaklda universitet lokal tarmog'i va veb-saytining tegishli fakultet veb-sahifasiga joylashtiriladi. Kurs ishi mavzularining ro'yxatiga ilova sifatida ushbu fan bo'yicha tavsiya qilinadigan adabiyot va elektron manbalar (veb-saytlar) ro'yxati ham beriladi.

4. Talaba o'ziga berilgan kurs ishi mavzusini yuqorida qayd qilingan veb-sahifadan olib, ilmiy rahbariga elektron pochta orqali bildirish yuboradi.

5. Kurs ishini bajarish bo'yicha maslahatlar ham elektron pochta orqali amalga oshirilishi mumkin.

6. Kurs ishini topshirish jarayoni:

a) talaba kurs ishini bajarib bo'lganidan so'ng, uni elektron variantda ilmiy rahbarining elektron pochtasiga jo'natadi;

b) ilmiy rahbar talabaga kurs ishining qabul qilinganligi haqidagi xabarni elektron pochta orqali jo'natishi lozim;

d) belgilangan muddat davomida ilmiy rahbar kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilari orasidan tanlab olingan ikkita taqrizchi bilan birgalikda tayyorlagan kurs ishi taqrizini elektron shaklda talabaning

elektron pochta manziliga jo'natishi lozim. Bundan tashqari, taqrizning bitta nuxxasi qog'oz variantda kafedra mudiriga topshirilishi kerak;

e) elektron shaklda bajarilgan kurs ishlarini belgilangan muddat davomida saqlash uchun maxsus ma'lumotlar bazasi yaratish mas'uliyati kafedra mudiri zimmasiga yuklatiladi.

"O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI" FANIDAN KURS ISHLARINI BAJARISH

Uqtirish xati

O'zbekiston uzluksiz ta'limining davlat ta'lim standartlari oliy ta'limning davlat ta'lim standarti 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablarda "5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) – ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasining yo'nalishi bo'lib, o'zbek tilining shakliy-mazmuniy tuzilishi va xususiyatlari hamda o'zbek adabiyoti materiallarini tizimli suratda o'rganish, o'zbek tili boyligi, sintaktik qurilishi imkoniyatlaridan badiiy ijod sohasida foydalanish, badiiy asar yaratish va uni tahlil qilish jarayonini o'z ichiga oladi" deyilgan.

Bakalavrlarning kasbiy faoliyati badiiy asarni adabiy va lisoniy tahlil etish hamda uning metodlarini o'zlashtirish; adabiyot va til bilimi to'g'risidagi axborotlarni to'plash, tahlil qilish, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish metodlarini egallash, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil fikrlash va kerakli qarorlar qabul qila olishi, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, adabiyot va til sohasiga oid yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, o'zini takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi, kompyuter texnologiyalari va sohaga oid dasturlash imkoniyatlaridan foydalangan holda ish yuritish, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish kabilarni qamrab olishi belgilab berilgan.

DTSGa ko'ra, kurs ishi kasbiy (maxsus) siklning bazaviy fanlari mavzusi bo'yicha bajarilishi va himoya qilinishi ta'kidlanadi. Bakalavriat talabalarida mumtoz adabiy merosimizni chuqur tadqiq etish, badiiy asar mohiyatini chuqur anglash, ularni tahlil va talqin qilish, mavjud matnlarni tadqiq etish, falsafiy asoslarini teran anglash, baholashda poetik mahorat jihatidan yondashish, birlamchi manbalar vositasida asosli ilmiy xulosalar chiqarish, aniq ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish ko'nikmasi shakllangan va rivojlangan bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda, kurs ishining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilishdir. Mavzularni yoritish jarayonida talabalarning o'z

bilimlarini oshirishlari, ilmiy tadqiqot olib borish malakasini hosil qilishlari va adabiyotshunoslikda mavjud ilmiy muammolarni hal etishda o'z ulushlarini qo'shishlari, yangi ilmiy-nazariy xulosalarga ega bo'lishlari nazarda tutilgan.

Kurs ishining mavzulari oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga shaxsiy topshiriq beriladi.

Talabalar kurs ishi yozishda quyidagi ishlarni amalga oshirishlari kerak:

Birincha navbatda, tanlangan mavzu bo'yicha e'lon qilingan ilmiy-metodik adabiyot ishlab chiqiladi. Kurs ishida mavzuni yoritish uchun zarur bo'lgan ilmiy-nazariy va metodik materiallarni ishlab, o'rganib chiqish, ko'chirmalar olish, konspekt tayyorlash, bibliografik ma'lumotlarni to'plash, shuningdek, kurs ishi uchun material manbayini tanlash va material to'plash kabi ishlar amalga oshiriladi.

Ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlarni tanlash hamda ishlab chiqishda tanlangan mavzuning adabiyotini iloji boricha to'liq qamrab olishga harakat qilish kerak. Bunda kutubxonaning (institut, universitet, FA va boshqa) predmet katalogidan foydalanish ijobiy natijalar beradi. Amaliyotchi adabiyot topishni boshqa yo'llar bilan ham olib borishi mumkin. O'qituvchi ko'rsatgan adabiyotlarda (agar ular ilmiy maqola yoki monografiya bo'lsa), albatta, bir qancha manbalarga havola (snoska) berilgan bo'ladi. Talaba ularni puxta o'rganib chiqqach, bu adabiyotlarda snoska berilgan manbalarni topib, ularni ham ishlab chiqadi. Keyingi (snoska yo'li bilan borib) topilgan adabiyotlarda, o'z navbatida, boshqa adabiyotlarga snoska bo'ladi. Talaba shunday yo'l bilan, iloji boricha, ko'p adabiyot topib, ularni ham erinmasdan o'rganib chiqishi kerak.

Talaba manbani ishlab chiqish jarayonida har bir manbani, eng avval, tanishishi uchun o'qib chiqadi, keyin qaytadan sinchiklab o'rganadi. Manbani ishlab chiqish uni o'qib chiqishdangina iborat emas. Shu o'qish jarayonida unda ko'tarilgan masalalar, ularning ishlanganlik darajasi, tuzilishi, hajmi kabi tomonlariga ham e'tibor berish kerak. Shu bilan birga, ayrim ma'lumotlarni ko'chirib olish, sitatalar olish, konspekt olish kabi ishlarni ham bajaradi. Agar manba mavzusi talaba uchun asosiy, eng muhim va hajman kichik bo'lsa, uni to'la ko'chirib olgan ma'qul. Ko'chirishda originaldan aynan ko'chirma olishga alohida e'tibor berish, hamma narsani – tinish belgisi, nuqtalarini ham aynan saqlab yozib olish kerak. Matn har xil harflar bilan (och yoki to'q qora harflar, bosma yoki

yozma harflar, kichik yoki bosh harflar bilan) berilgan bo'lsa, buni ham ko'chirmada aks ettirish kerak. Ko'chirishda originalning har bir betidagi matn qayerda tugasa, shuni ham ko'rsatib borish lozim. Buni betda tugagan joyga matnning o'zida qatorning ust va ost qismiga chiqarib yotiqroq (qiya) chiziq tushiriladi, bu chiziqning o'ng yoniga keyingi betning satr raqami yoziladi. Masalan, ... / 4 ... kabi. Chunki o'zi yozgan kurs ishida talaba ma'lum fikrning manbayini (kimniki ekanligini), albatta, ko'rsatishi lozim. Ana shunda sahifasigacha aniq ko'rsatish talabi tug'iladi. Sahifalarning chegarasini o'z vaqtida yo'l-yo'lakay belgilab ketilsa, keyinchalik, kurs ishini bevosita yozish davrida yana manba qidirishga, bet aniqlashga, xullas, ortiqcha kuch, mehnat va vaqt sarflashga to'g'ri kelmaydi.

Agar o'rganilayotgan manba hajman katta bo'lsa, talaba bu adabiyotdan o'z mavzusiga doir qismini aniqlab, faqat shu qisminigina ishlab chiqishi mumkin. Bunda qaysi betlarni (bob, bo'lim, paragraf) ishlab chiqqanligini ko'chirmaning, konspektning boshlanishida yoki oxirida manba ma'lumotlari bilan birgalikda yozib qo'yishi kerak (bibliografiya-da ham faqat shu qism ko'rsatiladi).

Ishlab chiqish lozim bo'lgan adabiyotni to'liq ko'chirib olib, keyin unga qayta-qayta murojaat qilib turish – eng to'g'ri yo'l, ammo ko'chirish paytida ko'p vaqt sarf bo'ladi. Shu sababli, ko'pincha, ko'chirishdan ko'ra konspektlashtirishni ma'qul ko'radilar (shuni ham eslatish kerakki, hozirgi paytda barcha kutubxonalarda matnning slaydini, suratini, fotokopiyasini tushirib berish va boshqa texnik vositalar mavjud bo'lib, bular talabalarga bu ishda yaqindan yordam berishi mumkin).

Kurs ishi mavzusining mohiyatini ochishga yordam beradigan fikrlar, mulohazalar, dalillar maxsus ko'chirma, sitata sifatida aynan yozib olinishi va xuddi o'zidek qo'llanilishi lozim. Bunday ma'lumotlar kartochka tarzida tuzilgan ko'chirmalar shaklida ishlatiladi.

Biror asardan ko'chirma (sitata) olganda matndagi havola raqamlarni va shularning snoskalarini ham saqlab yozib olish kerak. Manbaning ayrim qismlarni sitata tarzida aynan ko'chirib olgan ma'qul. Bunday sitata oxirida har gal manba ma'lumotlari ta'kidlanishi shart. Bunday sitatalarni daftarga yozmay, alohida-alohida qog'oz (kartochka)ga yozganda, o'rganayotgan asarga doir ma'lumotlarni har bir qog'ozga (kartochkaga) to'liq yozish shart.

Manba ma'lumotlarini yozish (ko'chirib olish)ning o'z tartibi mavjud, avval muallifning familiyasi, keyin ismi va otasining ismi yoki shu-

larni ko'rsatuvchi initsiallar yoziladi; initsiallar (qisqartma bo'lganligi sababli) oxiriga nuqta qo'yiladi; familiya bilan initsiallar orasiga tinish belgisi qo'yilmaydi, masalan: Borovkov A.K. kabi. Shu tartib bibliografiya tuzishda ham saqlanadi. Kurs ishining matni ichida, avval, initsiallar, keyin familiya yoziladi: A.K.Borovkov kabi.

Badiiy asar, darslik qo'llanmalar, odatda, bir necha marta nashr qilinadi: shunday bo'lsa, nechanchi nashri ekanligi ham ko'rsatilishi kerak, bunday ma'lumot kitob nomidan keyin keltiriladi: Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. 4-nashri, Toshkent. "O'qituvchi", 1978. Ma'lumotlarning eng oxirida ko'chirma olingan bet ko'rsatiladi: "15-bet" yoki "15-bet", tarzida.

Demak, ko'chirma (sitata)ning to'la ko'rinishi quyidagicha bo'ladi "Hojiyev A., Nurmonov A., Ahmedov N. Ona tili. 9-sinf uchun sinov darsligi. Toshkent, "O'qituvchi", 1994, 4-bet. "Hozirgi kunda o'zbek tili me'yorlashgan, qo'llanish doirasi, uslublari kengaygan milliy adabiy til O'zbekistan Respublikasining davlat tili darajasiga ko'tarildi".

Ko'chirmalar berishda numeratsiyalar bo'lishi kerak (Matbuot nashrlarida yulduzchalar bilan ham ifodalanishi mumkin). Ko'chirmada, odatda, arab raqamlari ishlatiladi. Havola o'rniga qo'yiladigan snoska yoziladigan raqami harflar satridan yuqoriroqqa qo'yiladi. Ko'chirmalarni nomerlashni har xil yo'llari mavjud. Ba'zi matnlarda har bir betdagi ko'chirma alohida-alohida raqamlanadi. Ba'zi asarlarda ko'chirmalar har bir bob uchun alohida qo'llaniladi. Ba'zan esa boshdan-oyoq bir raqamlash bilan havola va ko'chirmalar tartib bilan berilaveradi. Bularning har qaysining o'ziga xos ijobiy, qulay va salbiy tomonlari bor, albatta.

Keyingi vaqtlarda ko'chirma berishning boshqacha usulidan foydalanish kuchaymoqda. Bu usul ko'chirma berishni ancha ixchamlashtirmoqda. Bunga ko'ra, sahifa oxirida odatdagicha ko'chirma matni bo'lmaydi. Asosiy matnning o'zida havola beriladigan o'rinda qavslarga olib, arab raqami yoziladi. Bu raqam ish oxirida berilgan adabiyotlar ro'yxatidagi nomeratsiya raqamiga mos qo'yiladi.

Demak, birinchi ko'chirma berganda asosiy matnda qavslar ichida 1 raqamini yozamiz va ishning oxirida shu raqamni qo'yib, ko'chirma qilinayotgan manbaning ma'lumotlarini yozamiz, faqat betini ko'rsatmaymiz. Ko'chirma berilayotgan manbaning beti bu adabiyotni ko'rsatuvchi raqamdan keyin matnning o'zida beriladi, masalan: (1,3). Bunda birinchi raqam ko'chirma berilgan manbani, ikkinchi raqam esa shu adabi-

yotning sahifasini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim bir manbaga berilgan bir necha ko'chirmalarda birinchi raqam saqlanadi, ikkinchi raqam esa sahifaning o'zgarishiga qarab o'zgaraveradi. Xuddi shunday tartibda ikkinchi va keyingi adabiyotlardan ko'chirma berishda ham shunga amal qilinadi. Ishning oxirida qat'iy raqamlangan adabiyotlardan har biriga to'liq manba ma'lumotlari keltiriladi.

Ishda ko'chirmalardan foydalanish etik-axloqiy talablari, ularning me'yoriga alohida e'tibor berish lozim. Ko'chirmani ko'p keltirish tadqiqotning saviyasini oshirmaydi, aksincha, pasaytiradi. Shuningdek, ko'chirmaning mazmuni olib borilayotgan tadqiqot mazmuni bilan bevosita bog'langan bo'lishi shart.

Ko'chirma (sitata) olganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. Ko'chirmalar ma'lum maqsadga mos tanlanadi: undan biror fikrni isbotlash va tasdiqlash maqsadida foydalaniladi.

2. Har bir ko'chirma qo'shtirmoq ichiga olinadi. Agar sitata gap o'rtasidan ko'chirilsa, boshlovchi qo'shtirmoqdan keyin ko'p nuqta (uch nuqta) qo'yiladi; agar tekstdan eng keyingi so'z yoki jumla (so'zlar tushirib qoldirilsa, sitata oxiriga, yakunlovchi qo'shtirmoqdan oldin ko'p nuqta qo'yiladi. Agar sitata qilib ko'chirilayotgan yoki tekstning o'rtasidan so'z yoki so'zlar tushuntiriladigan bo'lsa, o'sha so'z yoki so'zlar o'rniga ko'p nuqta qo'yiladi.

3. Sitata matndagi so'zlar qisqartirib yozilmaydi.

4. Har bir sitatadan keyin qavs ichida manbayi ko'rsatiladi. Agar bir manbadan ketma-ket bir necha sitata olinsa, birinchi sitatada manba to'la ko'rsatiladi, keyingi sitatalardan keyin esa "O'sha yerda, ...-bet" deb yoziladi.

Sitatadan tezis, annotatsiya, konspektlar tuzish kabi yozuv ishlari vaqtida ham foydalanish mumkin. Bunday paytda sitata olishga qo'yilgan talablarning barchasiga qat'iy amal qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati kurs ishining eng muhim va zaruriy tarkibiy qismidir. Adabiyotlar ro'yxatini tuzishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

– fanning tanlangan muammo va masalalari haqida davlat va unga mas'ul ma'muriyatning qaror va ko'rsatmalari, rasmiy hujjatlar (hujjatning nomi, qabul qilingan sanalari asosida);

– mashhur va shu sohaning atoqli arboblari asarlari (muallif familiyalarining bosh harflariga qarab, alfavit tartibida); shu sohaga doir

boshqa manbalar: kitoblar, maqolalar, monografiya va dissertatsiyalar (muallifning familiyasi, ismi, asarning nomi, nashr qilingan joyi, yili);

– agar muallifi berilmagan bo'lsa, kitobning yoki maqolaning nomidagi bosh harflarga tayanib, alfavit tartibida ro'yxatga kiritiladi. Bir xil familiyali mualliflarning asarlari, ularning nomlari, familiyasi, ismi va otasining ismi bosh harflari asosida alfavit tartibida ro'yxatga kiritiladi; bir muallifning bir necha asariga murojaat qilinsa, ularning nashr sanalari yoki bosh harflari asosida ro'yxatga joylashtiriladi.

Ro'yxatda unga kiritilgan har bir asar haqida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:

- kitoblar uchun – kitob muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi, kitobning nomi, nashr etilgan joyi, nashriyot nomi, chop etilgan yili. Masalan: Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. – T.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. Agar to'plam bo'lsa, ro'yxatga kitob sarlavhasi bosh harfi asosida kiritiladi: Badiiy tafakkur va adabiy jarayon. To'plam. Toshkent, 2011. kabi. To'plamdan olingan maqolalar (kitob) bob yoki qismi uchun: maqola muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi, qism sarlavhasi, to'plam turi, nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, chop qilingan yili, betlar ko'rsatiladi. Masalan: Sirojiddinov Shuhrat. So'fi Ollohiyot ilohiyoti. 1-qism: Jamiyat va burch. T., Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. 77 b.

Jurnaldan olingan ma'lumotlar uchun: maqola muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi, maqola sarlavhasi, jurnal nomi, nashr yili, soni, beti ko'rsatiladi. Masalan: Oymatova M. Fardlarning janr xususiyatlari O'zbek tili va adabiyoti, 1998. 4-son. 12 – 15-betlar.

Ro'yxatga kiritiladigan ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlar bilan talaba shaxsan tanishib chiqishi zarur. Chunki hamma maqola yoki kitoblar ham ayni tanlangan mavzu talab qilgan masalalarni to'la yoritmaydi. Agar mavzu talab qilgan masalaga kitob javob bersa, uning biror bob yoki qismigina ro'yxatda aniq ko'rsatilishi kerak. Masalan: Abdullayev F. Tilning morfologiyasi qanday rivojlanadi. "Til qanday rivojlanadi?", risola, Toshkent, "Fan", 1972. 40 – 56-betlar.

Kurs ishiga yangi kirishayotgan talaba uchun ayniqsa, ilmiy matnning tuzilishini bilish, matn tarkibiy qismlarining xususiyatlarini bilib olish katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kurs ishining tuzilishini uch qismga bo'lish mumkin: 1) kirish; 2) asosiy qism; 3) xulosa.

Kirish. Kirishda, asosan, mohiyat e'tibori bilan mavzuning dolzarbligi, mavzuning o'rganilish darajasi, tekshirish obyekti, metodlari,

mavzudan ko'zlangan asosiy maqsad va uning vazifasi, qanday masalalar yoritilishi, erishilgan ilmiy natijalar aytib o'tiladi.

Asosiy qismda yoritilmoqchi bo'lgan masalalar sanab o'tiladi. Shu o'rinda, shu mavzuda mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarga qisman tanqidiy munosabat bildiriladi. Kirishdan "mazkur masala kam o'rganilganligi", "tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolayotganligi", "ilmiy jihatdan yetarli o'rganilmaganligi" kabi asoslangan mulohazalar bilan ilmiy ishning asosiy qismiga o'tiladi.

Xullas, kurs ishining kirish qismi o'quvchini ilmiy masalaning tarixiy sharoiti bilan tanishtirib, ilmiy asarni yozilish sababini asoslab, asosiy qismda yoritiladigan masalalarni qayd etish bilan cheklaniladi.

Asosiy qism. Kurs ishining asosiy qismi bir necha fasldan iborat bo'ladi. Faslda tadqiq qilinayotgan mavzuning ma'lum bir tor doirasidagi masalasi yoritiladi. Ishning asosiy qismida masalaga yangicha yondashilganligi, mavzuning to'laroq qamrab olinganligi, mukammalligi, dolzarbligi va shu jihatdan ilmiy qimmatini kabi xususiyatlarning hammasi o'z ifodasini topadi. Asosiy qism fakt va materiallar tahlil qilinadi. Tahlil soddadan murakkabga qarab birin-ketin, izchil, ma'lum bir ilmiy tamoyillar asosida izohlash, tushuntirish orqali beriladi. Fikr keng, chuqur va atroflicha bayon qilinishidan tashqari, yana to'g'ri, aniq, haqqoniy hamda mantiqan izchil bo'lishi kerak. Tezisni isbotlash ilmiy bayonning asosiy belgilaridan biri sanaladi. Isbotning aniq bo'lishi uchun fikr juda ko'plab amaliy dalil, misollar yordamida asoslanishi shart.

Xulosa. Kurs ishining xulosasi alohida sarlavha bilan ajratiladi. Ishning xulosasida uning asosiy qismida yoritilgan masalalarga yakun yasaladi. Olingan ilmiy yakunlarning, natijalarning asosiy mazmuni ba'zan abzatslar bilan, ba'zan raqamlar bilan 1-, 2-, 3- va hokazo tarzda ajratilgan holda birin-ketin sanab beriladi. Kurs ishining xulosasida ilmiy izlanishlarning natijalari yanada umumlashtirilgan holda beriladi.

Ilovalar. Kurs ishiga zarur bo'lsa ilova qismi mumkin. Ilova sifatida lug'atlar, fakt-dalillarning o'zi, turli xil jadvallar, ilmda e'lon qilinmagan matnlarning tabdili berilishi mumkin.

MAVZU: "AVESTO" ADABIY MANBA SIFATIDA

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

a) "Avesto"ning ilmiy va adabiy qimmati;

b) "Avesto"da mifologik timsollar;

d) "Avesto"da suv kulti.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Avesto" kitobining 2700 yilligiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuyining ochilishi marosimidagi nutq. O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 6-son, 3-bet.

2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. T., O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

3. Boboyev H., Hasanov S. "Avesto" – ma'naviyatimiz sarchashmasi. T., "Adolat" 2001. 158-b.

4. Hamidov H. "Avesto" fayzlari. T., "Xalq merosi", 2001, 95-bet.

5. Tohir Karim. Muqaddas "Avesto" izidan. T., "Cho'ipon", 2000. 176-bet.

6. Eshmurodov Madamin. "Avesto"da suv kulti. O'TA. 2001, 5-son, 55-bet.

7. Jo'rayev Mamatqul, Eshmurodov Madamin. "Bahrom Yashi"da mifologik timsollar ("Avesto" asosida). O'TA. 2000. 5-son. 5-bet; 41-bet.

8. Hamidov Homidjon. "Avesto"ning ilmiy va adabiy qimmati ("Avesto"ning tarkibiy qismlari va mohiyati). O'TA. 2000, 3-son, 7-bet.

MAVZU: "BOBURNOMA"NING BADIY XUSUSIYATLARI

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

a) "Boburnoma"da badiiy tasvir vositalari;

b) "Boburnoma"da tabiat tasviri;

d) "Boburnoma"da she'riy san'atlar istifodasi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1976.
2. Bobur. Boburnoma. T., "Sharq", 2002.
3. Bobur. Boburnoma. T., "Yulduzcha", 1990, 368-b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. 3 jildlik, 1-2-jildlar, Toshkent, 1965; 3-jild, Toshkent, 1966.
5. Mallayev N. M. O'zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, Toshkent, 1976.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma", Toshkent, 1960, 1988.
7. Jalolov S. "Boburnoma"da tabiat tasviri. "Sharq yulduzi", 1961, 3-son.
8. Adizova I. So'zumni o'qub anglag'aysen o'zumni. Toshkent, 2008.

**MAVZU: "MUZAKKIRI AHBAB" TAZKIRASIDA XVI ASR
ADABIY HAYOTI TALQINI**

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) "Muzakkiri ahbab" tazkirasini yaratilish tarixi;
- b) Tazkirada XVI asr adabiy hayoti tasviri;
- d) "Muzakkiri ahbab" tazkirasida shoirlar va ularning ijodiga munosabat.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. T., O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2005.
3. Azimova H. Tazkira va adabiy portretlarning tipologik xususiyatlari. O'TA, 2002, 2-son, 21-bet.

4. Valixo'jayev Botir. O'rta asr adabiyotshunosligida tazkira. O'TA. 1990, 5-son, 9-bet.

5. Mirzaxmedova Marg'uba. Hasan Nisoriy va uning "Muzakkir-ul-ahbob" tazkirasi. O'TA. 1965, 4-son, 70-bet.

6. G'aniyeva Suyima. Navoiyning "Majolisun nafa'is" asari ta'sirida yozilgan tazkira. O'TA. 1963, 6-son, 58-bet.

MAVZU: "SABOT UL-OJIZIN" ASARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

a) So'fi Ollohyor "Sabot ul-ojizin" asarida lafziy san'atlar;

b) "Sabot ul-ojizin" asarida ma'naviy san'atlar;

d) "Sabot ul-ojizin" asarida mushtarak san'atlar.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. So'fi Ollohyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent, 1991.

2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1990.

3. Jalilov S. Vatan ro'shnoligi – xalq ro'shnoligi. "Turkiston" gazetasi. 18.1.1992.

4. Said Turkistoniyl. So'fi Ollohyor. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. Toshkent, 1994.

5. Haqqul Ibrohim. So'fi Ollohyor –mutasavvuf adib. O'TA. 1993, 1-son, 3-bet.

6. Suvonqulov Inoyatulla. So'fi Ollohyor lirikasiga doir. O'TA. 1996, 3-son, 21-bet.

7. Ollohyorova Nilufar. "Sabot ul-ojizin"da tajnis san'ati (So'fi Ollohyorning shu nomdagi manzumasi asosida). O'TA. 2000, 6-son, 54-bet.

8. Boboyeva Mohigul. So'fi Ollohyor ijodida badiiy san'atlar (jajji tadqiqot). O'TA. 2004, 5-son, 47-bet.

9. Rajabova Diloru. "Mubayyin" va "Sabot ul-ojizin" asarlarining qiyosiy tahlili. (Bobur va So'fi Ollohyor asarlari tahlili). O'TA. 2004, 3-son, 63-bet.

10. So'fi Ollohyor. Sabotul ojizin. Nashrga tay: Rashid Zohid. T.,

“San’at jurnali”, 2007, 156-bet.

11. Sirojiddinov Shuhrat. So’fi Olohiyor ilohiyoti. 1-qism: Jamiyat va burch. T., Imom al-Buxoriy xalqaro jamg’armasi, 2001, 77-bet.

12. Haqqulov Ibrohim. Tasavvuf va she’riyat. T., G’. G’ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 185-bet.

MAVZU: “BOBURNOMA” TALQINLARI

Reja:

Kirish.I

Asosiy qism:

a) “Boburnoma”da hajviyot;

b) “Boburnoma”da xronotop masalasi;

d) “Boburnoma”dagi xalq rivoyatlari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

Adabiyotlar:

1. Adizova I. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O’quv qo’llanma. T., 2006.

2. Bobur. Boburnoma. T., “Sharq”, 2002.

3. Bobur. Boburnoma. T., “Yulduzcha”, 1990, 368-bet.

4. Jalolov Sayfiddin. Bobur va Andijon. T., “O’zbekiston”, 1993. 104-bet.

5. Mamedov Buxor. “Boburnoma”da hajviyot. 1982, 5-son, 47-bet.

6. O’zbek mumtoz adabiyoti namunalari. Majmua. (1–2-jildlar) Tuzuvchi: N. Rahmonov. T., “Fan”, 2005; 2006.

7. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. T., “O’zYU Adabiyot jamg’armasi” nashriyoti, 2006.

8. Orzibekov R. O’zbek adabiyoti tarixi. O’quv qo’llanma. Samarqand, 2005.

9. Abdullayeva M. “Boburnoma” va “Shajarayi turk”dagi xalq rivoyatlari. O’zbek tili va adabiyoti (O’TA), 2002, 2-son, 52-bet.

10. Madraimov Abdumajid. “Boburnoma”ning fors tilidagi qo’lyozma nusxalari. O’TA., 1974, 1-son, 58-bet.

11. Xo’jayev G’ulom. “Boburnoma”ning nemischa ikki tarjimasi. O’TA. 1979, 6-son, 46-bet.

12. Xolbekov Muhammadjon. “Boburnoma”ning yangi tarjimasi. O’TA. 1983, 2-son, 24-bet.

13. Sobirov Mahamatismoyil. Majoziy iboralarni tarjimada qayta yaratish ("Boburnoma"ning xorijiy tillarga tarjimasi haqida). O'TA. 2002, 1-son, 47-bet.

14. Ergashev Qodirjon. "Boburnoma"da xronotop masalasi// O'TA. 1995, 5-6 son (qo'shma son), 17-bet.

MAVZU: "HUSN-U DIL" DOSTONINING ADABIYOTDAGI O'RN

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) "Husn-u Dil" dostonining sujeti;
- b) "Husn-u Dil" dostonining obrazlari va g'oya:iy motivlari;
- d) "Husn-u Dil" dostonining tili va badiiy vositalari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

- 1. Nishotiy. "Husn va Dil". Lirikasi. Toshkent, 1967.
- 2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1990.
- 3. Abdullayev V. Muhammadniyoz Nishotiy. Saylanma. Toshkent, 1982.
- 4. Abdullayev V. A. Nishotiy lirikasi. O'TA. 1960, 6-son, 8-bet.
- 5. Rasulov Xolid. Nishotiyning "Husn va Dil" dostoni haqida. O'TA. 1962, 4-son, 11-bet.

MAVZU: "SHAJARAYI TURK" – TARIXIY-BADIY ASAR

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) "Shajarayi turk" asari qomusiy ma'lumotnoma;
- b) "Shajarayi turk"da afsona va haqiqat;
- d) "Shajarayi turk" dagi xalq rivoyatlari;
- e) "Shajarayi turk"ning badiiy xususiyatlari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. "Xorazm adiblari". N. Abdullayev Urganch, 1998.
2. "Xorazm tarixi". 1-qism. Urganch, 1996.
3. "Xorazm tarixi". 2-qism. Urganch, 1997.
4. Munirov Q. Xorazm tarixnavisligi. T., 2001-yil.
5. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980-yil.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. 4-tom T., 1978-yil.
7. Abulg'azi Bahodirxon va uning asarlari. Xudoynazarov Halim. "Shajarayi turk" da afsona va haqiqat. O'TA. 1971, 4-son, 42-bet.
8. Abdullayeva M. "Boburnoma" va "Shajarayi turk" dagi xalq rivoyatlari. O'TA. 2002, 2-son, 52-bet.

MAVZU: XVI-XIX ASRDA YARATILGAN TAZKIRALAR

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) Hasan Nisoriy va uning "Muzakkir ul-ahbob" tazkirasi;
- b) Mutribiy va uning "Tazkirat ush-shuaro" si;
- d) Tabibiyning ikki tazkirasi;
- e) Laffasiyning. "Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari" tazkirasi;
- f) Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasi;
- g) Sharifjon Mahdum (Sadri Ziyo)ning "Tazkori ash'or" tazkirasi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Matkarimova S. Tabibiy – tazkiranavis. T., "Muharrir", 2011.
2. Laffasiy. Tazkirat ush-shuaro. "Xorazm", 1992.
3. Mirzaahmedova Marg'uba. Hasan Nisoriy va uning "Muzakkir ul-ahbob" tazkirasi. O'TA. 1965, 4-son, 70-bet.
4. Abdullayev V. A., Valixo'jayev B. "Majolis un-nafois" tipidagi bir tazkira haqida (Mutribiy va uning "Tazkirat ush-shuaro" si). O'TA. 1965, 5-son, 13-bet.
5. Yo'ldosheva Nuri. XIX asr tazkiralari tarixidan. O'TA. 1966, 2-son, 64-bet.
6. Matkarimova Salomat. Tabibiyning birinchi tazkirasi. (XIX asr Xorazm adabiy muhitining vakili Ahmad Tabibiy tazkirasi haqida).

O'TA. 2001, 6-son, 24-bet; Tabibiy tazkirasidagi biografik ma'lumotlar, 2002, 5-son, 44-bet.

7. Ibrohimova E'tibor. "Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari" (Laffasiyning shu nomli tazkisasi qo'lyozmasi haqida). O'TA. 1963, 6-son, 62-bet.

8. Toshboltayeva Tojixon. "Majmuayi shoiron"dagi muammolar haqida. (Fazliy Namangoniy tazkirasidagi muammolar haqida). O'TA. 2005, 3-son, 95-bet.

9. Aliyev Said, Qosimzoda Ahmad. Bir she'riy tazkira qo'lyozmasi (Sharifjon Mahdum (Sadri Ziyov)ning "Tazkori ash'or") qo'lyozmasi haqida). O'TA. 1983, 1-son, 55-bet.

10. Ahrorova Gulnoza. "Mir'otul xayol" tazkisasi haqida (Mirzo Abdul Azim Somiy Bo'stoniy tazkisasi haqida). O'TA. 1983, 6-son, 42-bet.

MAVZU: ADABIY MUHIT VA LJODIY MAKTABLAR

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

a) XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshlari Buxoro adabiy muhiti;

b) Xorazm adabiy muhiti;

d) Qo'qon adabiy muhiti.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Qayumov Aziz. Qo'qon adabiy muhiti. (18–19-asrlar). T., "Fan", 1961, 361-bet.

2. Qobulov N. Xorazm adabiy muhiti. 1–2-kitoblar. Urganch, "Xorazm", 1992.

3. Karimova Dilorom. XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshlari Buxoro adabiy muhitida ruboiy janri taraqqiyoti. O'TA. 2005, 3-son, 81-bet.

4. Karimova Farida. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik. (Munir, Ogahiy, Tabibiy, Faqiriy debochalari haqida). O'TA. 2004, 3-son, 36-bet.

MAVZU: ADABIY HAMKORLIK VA TARJIMA ADABIYOTLAR

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) An'ana va izdoshlik;
- b) Sharq "Xamsa"chiligining adabiy aloqalar tarixidagi o'rnini;
- d) Nizomiy "Xusrav va Shirin"ning Qutb tarjimasi;
- e) "Mahbub ul-qulub"ning forschacha tarjimasi;
- f) "Boburnoma"ning nemischa ikki tarjimasi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Erkinov Sodirjon. Asrlar osha munshoira. T., "Fan", 1977. 80-bet.
2. Jumayev Rashid. An'ana va izdoshlik (Attorning "Mantiq ut-tayr" va Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonlarining qiyosi). O'TA. 2002, 1-son, 30-bet.
3. Xalilov Panoh. Nizomiy "Xusrav va Shirin"ning Qutb tarjimasi. O'TA. 1987, 2-son 35 -bet.
4. Xalilova Muslima. "Majolis un-nafois"ning forsiycha uchinchi tarjimasi. O'TA. 2000, 2-son, 57-bet.
5. G'aniyeva Suyima. "Mahbub ul-qulub"ning forschacha tarjimasi. O'TA. 2004, 4-son, 47-bet.
6. Xo'jayev G'ulom. "Boburnomaning nemischa ikki tarjimasi. O'TA. 1979, 6-son, 46-bet.
7. Xolbekov Muhammadjon. "Boburnoma"ning yangi tarjimasi. O'TA. 1983, 2-son, 24-bet.
8. Erkinov Sodir. Sharq "Xamsa"chiligining adabiy aloqalar tarixidagi o'rnini. O'TA. 1976, 5-son, 19-bet.

MAVZU: NAVOIY VA ADABIY HAMKORLIK

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) Arab adabiyoti va Navoiy;
- b) Xoja Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy;

d) Navoiy va uyg'ur adabiyoti;

e) Navoiy va Shekspir.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Erkinov Sodirjon. Asrlar osha mushoirasi. T., "Fan", 1977, 80-bet.

2. Abdullayev Ismatulla. Arab adabiyoti va Navoiy. O'TA. 1990, 1-son, 12-bet.

3. Vohidov Rahim. Xoja Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy. O'TA. 1991, 4-son, 25-bet.

4. Solihova Hanifa. Navoiyning uyg'ur izdoshi. (Abdurahim Nizoriyning "Robia va Sa'din" dostoni haqida). 2005, 1-son, 27-bet.

5. G'ulomova Dildor. Navoiy va Shekspir. O'TA. 1968, 6-son, 13-bet.

MAVZU: AMIR UMARXON IJODI

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

a) Amiriy devoni tuzilishi, janr tarkibi;

b) Amiriy lirikasida mavzu;

d) Amiriy g'azallarida she'riy san'atlar;

e) Amiriyning Navoiyga muxammaslari;

f) Nodira lirikasida Umarxon obrazi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1990.

2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006.

3. Jo'raxonov Abduahmad. Nodira lirikasida Umarxon obrazi. O'TA. 1997, 5-son, 46-bet.

4. Rahimova S. Amiriyning Navoiyga muxammaslari. Navoiyga armug'on. Toshkent, 2000.

5. Rahimova Sabohat. Amiriy san'atkorligining bir haqiqati xususida. O'TA. 2002, 3-son, 47-bet.

6. Qobilova Z. Amiriy g'azallarida ma'naviy san'atlar. O'TA. 2006, 5-son, 57-bet; "Navoiy daftari" – mahorat maktabi. (Amiriy devoni haqida). 2001, 6-son, 50-bet.

MAVZU: BOBUR SHE'RIYATI

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) Bobur lirikasining asosiy xususiyatlari;
- b) Zahiriddin Boburning fors-tojik tilidagi she'rlari;
- d) Bobur g'azallari;
- e) Bobur fardlari;
- f) Bobur she'riyatida tanosib san'ati;
- g) Bobur lirikasining ruscha tarjimalari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. 3 jildlik. 1-2-jildlar, Toshkent, 1965. 3-jild, Toshkent, 1966.
3. Adizova I. So'zumni o'qub anglag'aysen o'zumni. Toshkent, 2008.
4. Abdug'afurov Abdurashid. Bobur lirikasi. O'TA. 1983, 2-son, 14-bet.
5. Abdug'afurov Abdurashid. "Yordin"mi yoki "Bordin"mi? (Boburning bir g'azalidagi xato haqida). O'TA. 1994, 1-2-sonlar (qo'shma son), 39-bet; "Boshimni olib, ey Bobur... "2004, 6-son, 18-bet.
6. Qayumov Aziz. Bobur lirikasining asosiy xususiyatlari. O'TA. 1958, 2-son, 17-bet.
7. Oymatova Munavvar. Fardlarning janr xususiyatlariga doir (Lutfiy, Navoiy, Bobur fardlari misolida). O'TA. 1998, 4-son, 12-bet.
8. Inomxo'jayev Rahmon. Forscha tuyuq (Boburning forscha 2 tuyug'i haqida). O'TA. 1977, 3-son, 77-bet.
9. Isoqov Yoqubjon. Zahiriddin Boburning fors-tojik tilidagi she'rlari. O'TA. 1967, 3-son, 47-bet.

10. Saydaliyev To'loqin. Bobur lirikasining ruscha tarjimalari. O'TA. 2002, 2-son, 57-bet.

11. Haqqulov I. Bobur she'riyatida tanosib san'ati. O'TA. 1981, 5-son, 22-bet.

MAVZU: BOBURNING "MUBAYYIN" ASARI TA'LIMIY-TASAVVUFIY ASAR

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) "Mubayyin"ning yaratilish tarixi;
- b) "Mubayyin" g'oyaviy mazmun mundarijasi;
- d) "Mubayyin" va "Sabot ul-ojizin" asarlarining qiyosiy tahlili.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent. 1958.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. 3 jildlik, 1-2-jildlar, Toshkent, 1965; 3-jild, Toshkent, 1966.

3. Azimjonova Sabohat. "Mubayyin" haqida. O'TA. 1983, 2-son, 6-bet.

4. Rajabova Dilora. "Mubayyin" va "Sabot ul-ojizin" asarlarining qiyosiy tahlili. (Bobur va So'fi Olloyor asarlari tahlili). O'TA. 2004, 3-son, 63-bet.

MAVZU: BOBURNING ILMIY-FALSAFIY MEROSI

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) "Aruz risolasi"da turkiy aruz masalalari;
- b) "Mubayyin" ta'limiy-tasavvufiy asar sifatida;
- d) "Volidiya" asarida Xoja Ahror Valiy ta'limoti;
- e) An'ana va izdoshlik: Navoiy va Bobur, "Risolai aruz" va "Aruz haqida".

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. 3 jildlik, 1–2-jildlar. Toshkent, 1965; 3-jild, Toshkent, 1966.
3. Azimjonova Sabohat. "Mubayyin" haqida. O'TA. 1983, 2-son, 6-bet.
4. Ishoqov Yoqubjon. Boburning aruzga doir risolasi adabiyotshunoslar bahosida. 1973, 6-son, 58-bet.
5. Boltaboyev Hamidulla. "Risolai aruz" va "Aruz haqida" (Boburning asari bilan Fitratning asarini muqoyasa qilish natijalari haqida)// O'TA. 1995, 5 – 6-sonlar (qo'shma son), 9-bet.
6. Matg'oziyev Akbar. Navoiy va Bobur. O'TA. 1968, 3-bet, 80-bet.
7. Qudratullayev Hasan. Boburning qiyosiy tahlil san'ati. O'TA. 1996, 3-son, 17-bet.
8. Hasanov Saidbek. Boburning "Muxtasar" asarida aruzning taqti bobi. O'TA. 1972, 5-son, 56-bet.
9. Sharq mumtoz poetikasi H. Boltaboyev talqinida. T., O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
10. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, 1998.

MAVZU: BOBURNING RUBOIYNAVISLIKDAGI MAHORATI

Reja:

Kirish.

Asosiy qism:

- a) Bobur ruboiylarining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi;
- b) ruboiylarda hayotiy tarixiy lavhalar;
- d) shoir ruboiylarining badiiyati;
- e) Bobur ma'rifatparvarligini yoritishda tarixiy va badiiy mezon;

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. 3 jildlik. 1-2-jildlar, Toshkent, 1965; 3-jild, Toshkent, 1966.

3. Hayitmetov Abduqodir. Bobur ruboiylarining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi. O'TA. 1983, 6-son, 20-bet.

